



## “QIRQ QIZ” DOSTONI MISOLIDA O’QUVCHILARDA KOLLABORATIV KO’NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

*Bekbagambetova J.R.*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti*

**Tayanch soʻzlar:** kolloboraciya, oʻqitish, 4K model, badiiy-tarixiy asar, metod, “Qirq qiz” dostoni

**Ключевые слова:** коллобoрация, преподавание, 4K модель, художественно-историческое произведение, метод, эпос «Кырк кыз»

**Key words:** collaboration, teaching, model, artistic-historical work, method, epic of “Kirk kiz”


Kirish. Qoraqalpoq adabiyotida XVII-XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan “Qirq qiz” dostoni alohida oʻrin tutadi. Doston jahon adabiyotida kamdan-kam uchraydigan jasur qizlar haqidagi asardir. Bu doston atoqli xalq baxshisi Qurbonboy baxshidan 1939-1940 yillarda yozib olingan.[1;1] Maqolamizning maqsadi - toʻrt xil tushunchadan tarkib topgan modelimizning biri kolloboraciya tushunchasin Qirq qiz dostoni misolida oʻrganish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot usullari. Kollaboratsiya-yaʼni hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi ilk marta Amerika olimlari J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori R.Jonson, D.Jonson (1987) tomonidan oʻrganilgan va amaliyotga joriy qilingan. Hamkorlik pedagogikasi sharqda A.Avloniy, Gʻ.Gʻulom va K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko tomonidan oʻrganilib, kolloborativ taʼlim texnologiyasin kooperativ taʼlim deb ham atagan. Yaʼni kolloborativ-kooperativ sinonim taʼlim texnologiyalaridir.[6;334] R.Slavinning fikricha: "Hamkorlikda ishlash taʼlim texnologiyasi – bu guruhli oʻquv faoliyati boʻlib, guruhlardagi oʻquvchilar oʻrtasida maʼlumot almashinuvi bilan olib boriladi", deb taʼrif bergan. Bizning fikrimizcha, hamkorlikda ishlash- shaxsiy bilim va koʻnikmalarni shakllantiradi va insonning dunyo qarashini kengaytiradi. Psixologik nuqtai

nazardan qaraydigan bo'lsak, hamkorlikda ishlash- haqiqattan ham hayotda muaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Qoraqalpoq xalq dostonlaridan biri bo'lgan- "Qirq qiz" dostoni haqida aytadigan bo'lsak, boshqa xalq dostonlarimizdan farqi shundaki, bunda bosh qaharmonlar-botir, qo'rqmas ayol-qizlardir. Va albatta hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan: Doston bosh qahramoni qirq qizni to'plagan va ularga yo'l boschi bo'lgan- Guloyim obrazi orqali biz hamkorlik (kolloboraciya) belgilarini yaqindan ko'ra olamiz. Ya'ni bular:

(1-rasm)



Dostondagi qirq qizning asosiy maqsadi- o'z yurtin sirtqi ta'sir kuchlaridan himoya qilishdir. Bu himoya ostida esa bir- biriga bo'lgan hurmat va hamkorlikni quyidagi satrlar orqali bilsak bo'ladi;

Aqilli tuwgan Gulayim  
 Qirq qizga etti ziynetti.  
 Qariwlanip qirq qizi,  
 Atlarina minedi,  
 Tort bolinip on onnan,  
 Jaw bolip bagqa tiyedi.  
 Qarsı shigip jigirması,  
 Qara shashın tıyedi.  
 Kelgenlerdi qirgan bolıp,  
 Awdarıp alıp atınan,  
 Bir jerge bárin úyedi. [1;1]

Hamkorlikdagi o'quv muhitini tashkil etish o'quvchilarning erkin fikrlash darajasini rivojlantiradi, ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi, mustaqilligini rivojlantiradi, bu ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvida



bebaho rol o'ynaydi, Darslarda o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud :

1. Komandada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qiladi. R.Slavinning fikricha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Fikrimizcha, mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Ya'ni bunda har bir guruh a'zosining bilimlari ko'rib boriladi, natijada esa ular da bilim olishga degan qiziqish hissi yanada shakllanadi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R. Slavin, 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati amaliy darslarda keng foydalaniladi. Darslar o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.[9;43]

Yuqoridagi hamkorlikda o'qitish metodlari dars mobaynida qo'llanilsa, kelajagimiz bo'lgan-farzandlarimizning nafaqat ta'lim olishida balkim tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo'lar edi deb hisoblaymiz.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, badiiy-tarixiy asarlar misolida hamkorlikni o'qitish metodidan foydalanish bir qancha ijobiy natijalarga olib keladi. Birinchi navbatda, o'quvchining bilim olishga degan hissiyoti uyg'onadi. Chunki, o'qituvchi topshiriq berganda uning javobini topish uchun o'rganadi, izlanadi, harakat qiladi. Xullas, o'quvchi o'yla, izla, top degan savollarga javob izlashga o'tadi. Yana bir ijobiy tomonlaridan biri- erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, besh barmoq besh xil bo'lgani kabi o'quvchilar orasida og'ir bosiq, uyatchanlari ham uchraydi. Aynan shunday xarakterdagi o'quvchilarni hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida o'qitish



ulardagi ochilmagan bilim sirlarin va iqtidorin rivojlantirish uchun yo'li ochadi. Biz o'qituvchilar qaysi ta'lim metodidan foydalansak ham bizda faqat bitta maqsad bor. Ya'ni intellektual salohiyati yuqori avlodni tarbiyalash-har birimizning vatanimiz oldidagi burchimizdir.

#### Adabiyotlar:

1. Qaraqalpaq folklori. Kóp tomlıq - Nókis: 2009.
2. Azizxo'jaeva N.M. (2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. – T.: “Fan,61–69-b.
3. Берикханова А.Е. (-2017) Создание коллаборативной учебной среды как средство формирования успешности личности будущего учителя. Вестник КазНПУ.Алмата
4. Выготский Л.С. (2016) История развития высших психических функций// М.:Издательство Юрайт, –359с. – Серия: Антология мысли
5. Макаренко А.С. (1972) Коллектив и воспитание личности. – М.: Педагогика, – 334 с.
6. Мавлонова Р.А. [va boshq.](2016) Педагогика. Дарслик.105- б.
7. Mavlonova. K.M [va boshq.](2022) – Ona tili [Matn] : 6-sinf uchun darslik Toshkent: Respublika ta'lim markazi.–224 b.
8. Педагогика: энциклопедия (2015) II жилд/тузувчилар:жамоа.-Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. -376 бет
9. Славина Р, Мусина Р.Г.( 2007) Таълим бериш ва ўқишнинг интерактив усуллари. Ўқув кўланма. 5-модуль, - Т.-43-б

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada hozirgi zamon o'quvchilarining darslarni samarali o'rganishi uchun xizmat qiluvchi 4K modelidan biri bo'lgan kolloboraciya tushunchasi, uning mazmuni va samaradorligi va badiiy-tarixiy asarlar misolida o'quvchilar ongiga singdirish, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga alohida e'tibor berilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается концепция сотрудничества, которая является одной из моделей 4К, служащих для эффективного усвоения уроков современными учащимися, ее содержание и результативность, а также на примере художественных и исторических произведений, воспитывающих в сознании учащихся сотрудничество, эффективный обмен идеями и взаимопонимание. Особое внимание уделяется навыкам поддержки обучения.

#### SUMMARY

In the article, the concept of collaboration, which is one of the 4K models that serve for the effective learning of lessons by modern students, its content and effectiveness, and the example of artistic and historical works, instilling in the minds of students, cooperation, effective exchange of ideas and mutual understanding. Special attention is paid to learning support skills.